

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA BOTANIKA FANI MAVZULARIDA ELEKTRON DARSLIKLARNI QO'LLASH

Serobova Gulbahor Shuhrat qizi

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola biologiya faniga qiziquvchilar va shu sohada ish yurutuvchilar uchun hamda umumta'lim maktablarida botanika fanini o'qitish uchun zarur electron resurslar yaratish yaratilgan electron resursni dars jarayonida qo'llash va uni ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan. Maqolada electron resurslar turlari va ta'lim tizimidagi roli hamda o'quvchilar bilim darajasini oshirishdagi ahamiyati, zamonaviy ta'limning innavatsion axborot texnologiyalari asosida tashkil etiladigan dars tuzilmalari va shakllari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *botanika, electron resurslar, axborot kamunikatsiya texnologiyalari.*

Hozirgi zamonaviy fan va texnologiyaning jadal rivojlanishi jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari inson turmush tarzining barcha sohalarida ta'lim, texnologiya, ishlab chiqarish va ko'plab sohalarni ajralmas vositaga aylanib ulgurdi va bu soha asosida insoniyatning turmush tarzi yaxshilanishini inkor etib bo'lmaydi. Shunday ekan, axborot texnologiyalarining hozirgi zamon taraqqiyoti va yutuqlari fan hamda inson faoliyatining barcha sohalarini axborotlashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Chunki aynan mana shu narsa butun jamiyatning axborotlashtirilishi uchun asos va zamin bo'ladi. Axborot har qanday fanni ba'zi tushunchalarni umumlashgan va bir-biriga bog'lagan holda o'rganadi shu bilan birga botanika faniga

ham axborot resurslaridan foydalanish o'quvchini yanada izlanishiga fanga chuqurroq yondashuviga zamin bo'ladi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi —O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi PF-4947-sonli farmonida —umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish [2], 2019 yil 29 apreldagi —O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 - yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5712-sonli farmonida —o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish kabi bir qator muhim vazifalar belgilab berilgan [3]. Rivojlangan davlatlar safidan o'rin olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan mamlakatimiz xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari kabi ta'lim sohasida ham ilg'or texnologiyalarni joriy etish va shu orqali ta'lim mazmunini jahon andozalari darajasiga olib chiqishga harakat qilmoqda [4]. Botanika fanlarida o'simliklar to'qimasi hujayrasi, fotosentez jarayonlarni kuzatish, atomlarning tuzilishi kabi biologic jarayonlarni oddiy ko'z bilan korish imkoni mavjud emas. Ta'limni axborotlashtirish yordamida darsni qiziqarli hamda ko'rgazmali interfaol bo'lib vaqtdan unimli foydalanishga olib keladi.[5] ilmiy tadqiqot ishi yuzasidan magistrlik stajirofkasi davomida men maktab o'quvchilarida darslarni axborot texnologiyalariga boyitgan holda , electron darsliklardan foydalangan holda mavzularni tushintirishga harakat qildim natijada bolalarda yuqori faollik fanga bo'lgan qiziqishni oshganligini ko'rish mumkin edi.

Xulosa qilib aytganda Botanika fanidagi nazariy bilimlarni amalyotda ko'rish uchun bir qancha vaqt va fasllarni almashishini kutish ketak edi, axborot texnologiyalari yordamida o'simlikning butun vegetatsiya davrini kuzatish imkoniyati mavjud bo'ldi. O'quvchilar bilimlarini samarali oshirishga erishildi. Bundan tashqari axborot resurslaridan foydalanish zamonaviy ta'limni rivojlantirish hamda yurtimiz

xududimiz iqlimiga moslashmagan o'simliklar vegetatsiyasini o'rganishga foyda beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *M Ochilov. Yangi pedagogic texnologiyalar—Qarshi; Nasaf 2000 y*
2. *J. O Tolipov , A T G'ofurov Biologiya o'qitish metodikasi . pedagogika oily o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv darslik 2007y*
3. *[http;www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)*
[http;www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)